

**Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti
Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi**

**M.A.Rahmatullayev, U.F.Karimov, A.Sh.Muhamadiyev,
J.Atajanov, M.P.Savochkin**

**KORPORATIV AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING
AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI**

(KARMAT-M)

**Maktab axborot-resurs markazining avtomatlashtirilgan tizimidan
foydalanuvchilar uchun uslubiy qo`llanma**

Toshkent-2009

78.30
K69

Uslubiy qo`llanma Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti Ilmiy kengashi tomonidan “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” ta`lim yo`nalishi uchun uslubiy qo`llanma sifatida nashrga tavsiya qilingan.

Mas`ul muharrir: sotsiologiya fanlari doktori,
A.O. Umarov

Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT-M): [Uslubiy qo`llanma] / M.A.Rahmatullayev va boshq.; Mas`ul muhar. A.O.Umarov. — Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi. - T.: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.- **64 b.**

Uslubiy qo`llanma “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” ta`lim yo`nalishida ta`lim olayotgan talabalarga, AKM, ARM va kutubxonalarini axborotlashtirish sohasida ishlayotgan mutaxassislarga, aspirant, ilmiytadqiqotchilarga hamda maktab axborot-resurs markazi kutubxonachilariga mo`ljallangan. Maktab ARM faoliyatida asosiy axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga mo`ljallangan ushbu tizim bibliografik ma`lumotlarni almashtirish bo`yicha xalqaro talablarga javob beradi. Ma`lumotlarni uzatish va qaytarib olish bo`yicha ISO 2709 xalqaro standartini to`la qo`llab-quvvatlaydi.

© Rahmatullayev M.A.
© Karimov U.F.
© Muxamadiyev A.Sh.
© Atajanov J.
© Savochkin M.P.

Mundarija

Kirish.....	6
1. KORPORATIV AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI.....	8
1.1 Kutubxonalar tipologiyasi va avtomatlashtirilgan tizimlar.....	8
1.2 KARMAT tizimining afzalliklari.....	9
2. TIZIMNING UMUMIY TAVSIFI VA TIZIMNI O`RNATISH.....	11
2.1 Dasturiy-texnik ta`minot.....	11
2.2 Axborot ta`minoti.....	11
2.3. Tizimni o`rnatish.....	11
2.4 Tizim ishini boshqarish.....	16
2.5 Maktab axborot-resurs markazidagi axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning o`ziga xos xususiyatlari.....	17
3. TIZIMNI ISHGA TUSHIRISH.....	18
4. KATALOGLASHTIRUVCHINING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI (AIO`)	20
4.1. Foydalanuvchilarni ARMning elektron katalogida ro`yhatdan o`tkazish.....	20
4.2. ARM fondidagi hujjatlar bibliografik tavsif elementlarini EK bazasiga kiritish.....	23
4.3 Hujjat nuxxalarini belgilash.....	24
4.4 Elektron katalog bazasidagi yozuvni tahrirlash.....	26
4.5 Elektron katalog bazasiga yangi hujjatning bibliografik tavsif elementlarini kiritish.....	27
4.5.1 Bibliografik tavsifni hujjatning to`liq matniga bog`lash.....	30
4.6. Bibliografik tavsif elementlarini kiritishda lug`atlardan (dinamik bazadan) foydalanish.....	32
4.7. Katalog kartochkasini bosib chiqarish.....	33
5. KITOBXONNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI.....	35
5.1 Kitobxonning shaxsiy elektron kabineti.....	35
5.2 Elektron katalogdan foydalanib qidirish.....	35
5.3 Kitobxonning avtomatlashtirilgan ish o`rni bilan ishslash jarayoni.....	37
5.4 Tizimning elektron katalogida bo`lmagan adabiyotlarga buyurtma berish	42
6. KITOB BERISH VA QAYTARIB OLISH BILAN SHUG`ULLANADIGAN XODIMNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI.....	44
6.1. Buyurtmalar bilan ishslash (adabiyotlarni berish).....	44
6.1.1 Elektron katalogdan foydalanmasdan adabiyotlarni berish.....	47
6.2 Buyurtmalar bilan ishslash (adabiyotlarni qaytarib olish).....	49
6.2.1 “Maxsus buyurtma” orqali berishgan buyurtmalarni bajarish.....	51
6.3. ARM statistikasi.....	52
7. ADMINISTRATORNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI.....	55
7.1 KARMAT – M tizimining ichki formatini yaratish.....	56
7.2 KARMAT – M tizimida korporativ kataloglashtirish usulidan foydalanish....	58
7.3 KARMAT – M tizimida yangi ma`lumotlar bazasi yaratish.....	60

7.4 Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlari orasida bibliografik yozuvlarni almashtirish (Eksport/import operatsiyalari).....	62
7.4.1 IRBIS tizimining ma`lumotlar bazasidan kerakli yozuvlarni “KARMAT” tizimining ma`lumotlar bazasiga ko`chirib o`tkazish usuli.....	62
7.4.2 Administratorning AIO`da ma`lumotnomalar yaratish.....	64
8. FONDNI BUTLASH BILAN SHUG`ULLANADIGAN XODIMNING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI.....	69
Xulosalar.....	71
Adabiyotlar.....	72
Ilovalar.....	74

Qisqartmalar

- 1.** ARM – Axborot resurs markazi.
- 2.** AKM – Axborot kutubxona markazi.
- 3.** AIO` – Avtomatlashtirilgan ish o`rni.
- 4.** AKAT – Avtomatlashtirilgan kutubxona - axborot tizimi.
- 5.** KBT – Kutubxona bibliografik tasniflagich.
- 6.** KShEK – Kitobxonning shaxsiy elektron kabinet.
- 7.** MBBT – Ma`lumotlar bazasini boshqarish tizimi.
- 8.** MB – Ma`lumotlar bazasi.
- 9.** MARC – Machine-Readable Cataloguing record – mashina o`qiy oladigan kataloglashtirish yozuvi.
- 10.** ShEK – Shaxsiy elektron kabinet.
- 11.** IRBIS – Integrallashgan kutubxona axborot tizimi.
- 12.** O`UK – O`nli universal klassifikatsiya.
- 13.** EK – Elektron katalog.

KIRISH

Respublikamiz Prezidentining 2006 yil “Aholini kutubxona axborot bilan ta`minlashni tashkil etish” to`g`risidagi qarori ijrosini ta`minlash borasida kutubxonachilik ishi sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Qarorda ko`zda tutilgan yangi tipdagi axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlarini (AKM, ARM) tashkil qilish, katta mablag` va vaqt talab qiladigan murakkab masala hisoblanadi. Ma`lumki, zamonaviy talablarga javob beradigan kutubxonada avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini (AKAT) yaratmasdan turib qarorda ko`zda tutilgan vazifalarni to`liq bajarish mumkin emas. AKATning ta`minotlari (dasturiy, texnik, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik va kadrlar) orasidan bugungi kunda ko`pchilikning e`tiborida turgani bu dasturiy ta`minotdir [1, 2, 3, 4, 14]. O`zbekiston kutubxonalarida AKAT dasturiy ta`minoti sifatida Rossiyada ishlab chiqilgan IRBIS tizimining qo`llanilayotganligi diqqatga sazovordir. Integrallashgan kutubxona axborot tizimi (IRBIS) 1990 yillarning oxirlaridan boshlab O`zbekiston kutubxonalarida tatbiq qilina boshlagan bo`lsa-da, u bugungi kunda mamlakatimizning ko`pchilik AKM, ARM va kutubxonalarida o`z o`rnini topmadi. Buning birinchi sababi tizimning bahosi mamlakatimiz kutubxonalarining moliyaviy imkoniyatlariga mos emasligida bo`lgan bo`lsa, ikkinchi sababi tizimning O`zbekiston kutubxonalariga to`liq moslashtirilmaganligi bo`ldi. Tizim o`zbek tiliga tarjima qilinmadı, buning sababi “Axborot, kutubxonachilik va nashriyot ishi” (SIBID) turkumiga kiruvchi kutubxona standartlari o`zbek tilida mayjud emas edi. Kataloglashtirish qoidalari ham O`zbekiston kutubxonachilik ishi uchun “ochilmagan qo`riq” edi [9]. Ammo, shunga qaramay IRBIS tizimining O`zbekiston kutubxonachilik ishi rivojida juda katta ta`siri bo`ldi. Mamlakatimiz kutubxonachilarini mazkur tizim orqali kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish to`g`risidagi tushunchalarga ega bo`ldilar, elektron kataloglashtirish nima ekanligini tushunib yetdilar va eng asosiysi xalqaro talablarga mos ravishda elektron bibliografik resurslar yaratish texnologiyalarini o`zlashtirdilar. An`anaviy kataloglashtirishdan elektron kataloglashtirishga o`tishdagi psixologik faktorlarni yengib o`tishda ham tizim o`zining ijobiy tomonlarini ko`rsata oldi. O`zbekistonda yaratilgan dastlabki “Namunaviy avtomatlashtirilgan kutubxona” (O`zbekiston Respublikasi FA asosiy kutubxonasi) ham IRBIS tizimi asosida tashkil qilindi. Bundan tashqari O`zbekistondagi bir qator yirik kutubxonalardagi EK bazasi mazkur tizim asosida shakllantirilmoqda, faqatgina Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi yaratilgan EK bazasidagi bibliografik yozuvlar soni 150 000 dan ortib ketdi. Oliy ma`lumotli kutubxonachi kadrlar tayyorlashda ham IRBIS tizimi o`zining katta hissasini qo`shdi. MARC formatlar asosida kataloglashtirish usullari, adabiyotlarni qidirish, buyurtmalar berish va ularning avtomatlashtirilgan holda bajarilishini hamda kutubxona statistikasini yuritishni talabalar mazkur tizimdan foydalanib o`rgandilar. Milliy avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini ishlab chiquvchilar ham tizimning avtomatlashtirilgan ish o`rinlari funksiyalaridan foydalanib o`z ishlannmalarini yaratishga kirishdilar. O`sha paytlardan boshlab O`zbekistonda elektron kataloglashtirish asri boshlandi. Dastlabki elektron katalog 1999 yili Toshkent axborot texnologiyalari

universitetida IRBIS tizimidan foydalanib yaratilgan bo`lsa (TASIS dasturi), ayni shu paytlarda Respublikamizdagi 10 ta kutubxona ham mazkur tizimdan foydalanib o`z elektron kataloglarini shakllantira boshladi. Elektron kataloglashtirish bilan bir payda milliy AKAT yaratishga ham urinishlar boshlandi. Masalan, O`zbekiston Milliy universitetida, ATM “INFO-FAN”, Toshkent axborot texnologiyalari universitetida, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat madaniyat institutida, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasida, Toshkent viloyati “Turon” kutubxonasida va boshqa bir qator tashkilotlar tomonidan AKAT yaratishga kirishildi. Dastlab yaratilgan AKATlar ma`lumotlar bazasi MARC formatlar talablarini qondirmas edi va shu sababli ham bibliografik yozuvlarni almashtirish, ularni Internet tarmog`ida taqdim qilish, ayniqsa bibliografik tavsifning barcha elementlari bo`yicha qidiruv bajarish cheklangan edi. Hozirgi kunda yaratilayotgan AKATlardagi bu kamchiliklar bartaraf qilingan. Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasida ishga tushirilgan “Kitobxonlarga masofadan xizmat ko`rsatishning avtomatlashtirilgan tizimi” kataloglashtirishda xalqaro talablarga rioya qilgani tufayli, o`z EK MBdan boshqa ARM, AKM va kutubxonalarining samarali foydalanishiga keng imkoniyat yaratdi.

2007 yili Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasining “Axborot, kutubxonachilik va nashriyot ishiga oid standartlar tizimini” (SIBID) O`zbekiston kutubxonachilik ishiga tatbiq qilish to`g`risidagi tashabbusini “Aloqa va axborotlashtirish agentligi” qo`llab-quvvatladi va Respublika axborot kutubxona markazining sa`yi harakati bilan kutubxonachilik sohasiga oid standartlar tizimining birinchi varianti ishlab chiqildi. Demak, nazariy jihatdan kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beruvchi dasturiy vositalar yaratishga imkoniyat yaratildi [5, 6, 7].

Shunday qilib, ARM, AKM va kutubxonalardagi asosiy axborot jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy vositalar kompleksini yaratish masalasi kutubxonachilik ishi sohasida faoliyat olib boruvchi mutaxassislar tomonidan hal qilinadigan o`ta dolzarb masalalardan biriga aylandi. Axborot-resurs markazlarining kataloglashtirish sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish, hamkorlikda elektron bibliografik resurslar yaratish va ulardan birgalikda foydalanish imkoniyatiga ega bo`lgan tizimni yaratish hamda ta`lim muassasalaridagi ARMIlarga tatbiq qilishga juda katta ehtiyoj tug`ildi. E`tiboringizga havola etilayotgan “Korporativ axborot-resurs markazlarining avtomatlashtirilgan tizimi (KARMAT)” ta`lim tizimi sohasida faoliyat olib borayotgan kutubxonachilar mehnatini yengillashtirishga, kitobxonlarga ko`rsatilayotgan xizmat sifati va madaniyatini yuksaltirishga o`z hissasini qo`shadi degan umiddamiz.

1. KORPORATIV AXBOROT-RESURS MARKAZLARINING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMI

1.1 Kutubxonalar tipologiyasi va avtomatlashtirilgan tizimlar

Kutubxonalar uchun dasturiy vosita yaratuvchilarining ba`zi birlari “Biz shunday tizim yaratdikki uni ixtiyoriy tipdagi kutubxonaga tatbiq qilish mumkin” deya da`vo qilmoqdalar. Ular kutubxonalar tipologiyalarni bilmasliklari tufayli turli tipdagi kutubxona oldiga o`ziga xos vazifalar qo`yilganligini va bu vazifalar turlicha ekanliginini tushunmaydilar. Bu birinchidan, ikkinchidan esa ARM, AKM va kutubxonalarning moliyaviy imkoniyatlari ham turlicha demak, dasturiy vositalarni sotib olish imkoniyatlari ham turlicha. Bunday holatda “universal dasturiy vosita” yaratish maqsadga muvofiq emas. Shunday qilib, biz shunday dasturiy vositalar kompleksini yaratishimiz lozimki, u turli tipdagi AKM, ARM va kutubxonalarning bajaradigan vazifalariga, funksional talablariga va moliyaviy imkoniyatlariga mos kelsin. Shunday qilib biz barcha ARM, AKM va kutubxonalariga tatbiq qilinadigan yagona tizimni emas balki turli vazifalarni bajaruvchi turli tipdagi AKM, ARM va kutubxonalar uchun dasturiy vositalar kompleksini taklif qilamizki, AKM, ARM va kutubxonalar o`z imkoniyatlaridan (funksional va moliyaviy) kelib chiqqan holda o`zlariga kerakli dasturni tanlab olsinlar. Dasturiy kompleks modul prinsipiqa asoslanib yaratilganligi tufayli kerakli tizimni yaratish unchalik mushkul ish bo`lmaydi. Shunday qilib, kutubxona jarayonlarini kompleks avtomatlashtirishga mo`ljallangan tizim bilan tanishishga o`tamiz [8].

KARMAT tiziminig tuzilmasi modul prinsipi asosida tashkil qilinganligi tufayli, uning bazaviy yadrosini bibliografik ma`lumotlarga ishlov beruvchi universal protseduralar tashkil qiladi. Tizim yangi modullar qo`shilishi hisobiga turli tipdagi AKM, ARM va kutubxonalar va ilmiy-texnika axborotlariga ishlov beruvchi tizimlarga moslashtirilishi mumkin. Tizimni ishlab chiqish bir necha yo`nalishlarda olib borilmoqda:

1. KARMAT-M: Maktab ARM faoliyatini avtomatlashtirishga mo`ljallangan.
2. KARMAT-ITA: Ilmiy texnika adabiyotlari elektron kutubxonasi.
3. KARMAT-AK: OUYu/Akadem lisey/Kollej ARM lari uchun.
4. KARMAT-U: AKM, ARM va kutubxonalar.
5. KARMAT-K: Korporativ kataloglashtirish, yig`ma EK.

Mazkur qo`llanmada tizimning maktab axborot-resurs markazlari faoliyatini avtomatlashtirishga mo`ljallangan asosiy funksional imkoniyatlari to`g`risida so`z boradi.

1. Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rni (AIO`).
2. Kitobxonning AIO`.
3. Kitob berish va qaytarib olish bilan shug`ullanuvchi xodimning AIO`.
4. Fondni butlash bilan shug`ullanuvchi xodimning AIO`.
5. Tizimni boshqarish/yuritish bilan shug`ullanuvchi xodimning (Administratorning) AIO`.

Modullar AKM, ARM va kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlarini (axborotlarni yig`ish, ishlov berish, saqlash, qidirish va uzatish) avtomatlashtirish imkoniyatini beradi.

1.2 KARMAT tizimining afzalliklari

1. Korporativ kataloglashtirish texnologiyasining mavjudligi tayyor bibliografik yozuvlardan foydalanib tezda va sifatli o`z EK bazasini shakllantirish imkoniyatini yaratadi.
2. Tizim Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasida yaratilgan avtoritet fayllardan foydalanishi hisobiga kataloglashtirish jarayoni tezlashadi, mualliflarning ismi sharifini (taxalluslarini), sarlavhalarni kiritishda bunday yondoshuv birinchidan kataloglashtirish jarayonini tezlashtirsa ikkinchidan yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatoliklarning oldini oladi.
3. Tizimda kitobxonlarga masofadan xizmat ko`rsatish texnologiyasini amalga oshirilganligi kitobxonlarning bevosita kutubxonaga kelmasdan elektron katalogdan foydalanib va foydalanmay buyurtmalar berish va buyurtmalarni qabul qilinganligi, ularning bajarilishi to`g`risidagi axborotlarni olish imkoniyatini yaratgan.
4. Tizim bibliografik tavsif yaratishda O`zbekistonda ishlab chiqilgan (xalqaro) standartlar tizimiga rioya qiladi.
5. Tizim ishlatish uchun juda qulay bo`lib, u O`zbekiston kutubxonachilarining bugungi kundagi malaka va ko`nikmalarini e`tiborga olib yaratilgan.
6. Tizimdan foydalanuvchilar uchun sodda va barchaga tushunarli tilda uslubiy qo`llanma (o`zbek va rus tillarida) yaratilgan.
7. Tizimni tatbiq qilish, AKM, ARM va kutubxona xodimlarini tizimni boshqarishga o`rgatish maqsadida maxsus o`quv kurslari tashkil qilingan. Kelajakda masofadan o`qitish tizimini ishga tushirish mo`ljallanmoqda.
8. Tizim tarkibiga kiritilgan maydonlarni yaratuvchi maxsus “Konstruktor” ixtiyoriy tipdagisi va kerakli xossaga ega bo`lgan maydonlarni tuza oladi. Bu esa o`z navbatida ichki va tashqi formatlarni kutubxona texnologiyalariga moslab loyihalash imkoniyatini yaratadi.
9. Elektron katalog bazasini shakllantiruvchi kataloglashtiruvchi uchun EK maydonlariga kiritilayotgan ma`lumotlar to`g`risida axborot (yordam) berilgan. Maydonga kiritilayotgan ma`lumotlar shakli misollar orqali ko`rsatilgan.
10. Elektron katalog bazasini shakllantirishda ma`lumotnomalar (dinamik bazalar)dan foydalanish EK bazasini to`ldirish jarayonini tezlashtiradi va tayyor ma`lumotlardan foydalanish yo`lga qo`yilganligi tufayli xatoliklar kamayadi.
11. Tizim axborotlarni AKAT bazasiga kiritishda va ularni tarmoq bo`yicha uzatishda xalqaro kutubxona-bibliografik va kommunikativ formatlarni, tasniflash tizimlari hamda kodlashtirish qoidalarini (KBK, UO`K, UNIMARC, MARC21, USMARC va boshqalarni) qo`llab-quvvatlaydi. Bu

esa o`z navbatida boshqa tizimlardan bibliografik yozuvlarni ko`chirib olish va jahon axborot-kutubxona tarmog`i bilan integrallashuviga imkoniyat yaratadi.

2. TIZIMNING UMUMIY TAVSIFI VA TIZIMNI O`RNATISH

2.1 Dasturiy-texnik ta`minot

Tizim lokal va global tarmoqlarda, IBM PC kompyuterlarining Windows XP operatsion tizimida ishlay oladi. Tizim apparat vositalariga nisbatan hech bir qo`shimcha talablar qo`ymaydi.

Tizimning dasturiy ta`minoti PHP texnologiyasida, ma`lumotlar bazasi sifatida esa MBBT (ma`lumotlar bazasini boshqarish tizimi) MySQL ishlatalig. Bundan tashqari tizimni ishlatish uchun Apache veb serveri kerak bo`ladi. Yuqorida sanab o`tilgan Apache veb serveri, PHP texnologiyasi va MBBT MySQL larning barchasi ochiq sistemalardir, ya`ni ishlatish va o`zgartirish bepul. Hozirda yuqoridagi tizimlarning barchasi KARMAT-M tizimi tarkibiga komponent sifatida kiritilgan. Tizim kerakli dasturlarni sozlash va o`rnatishni avtomatik tarzda bajaradi, foydalanuvchidan ularni o`rnatish yoki sozlash kabi ishlarni bajarish talab qilinmaydi. Maktab ARM xodimlari uchun bunday imkoniyatning yaratilishi ularning KARMAT-M dan foydalanishlarida katta qulayliklar yaratadi.

2.2 Axborot ta`minoti

- Tizim elektron katalogining ma`lumotlar bazasi adabiyotlarning bibliografik va texnologik tavsifidan iborat bo`lib ba`zi bir hollarda bibliografik tavsifga to`liq matn ham bog`lash imkoniyati yaratilgan;
- Agar bibliografik yozuvga adabiyotning to`liq matni kiritilgan bo`lsa, u holda o`sha to`liq matn formatini ko`rsata oladigan matn muharrirlari kerak bo`ladi (agar to`liq matn *.doc formatida bo`lsa, Microsoft Word matn muharriri, *.pdf formatida bo`lsa, Acrobat Reader dasturiy ta`minotlari kerak bo`ladi);
- Tizim elektron katalogini samarali shakllantirish uchun maxsus dinamik va statik lug`atlardan foydalanilgan (nashriyotlar, shaharlar nomlari, nashrlarning asosiy matn tillari, individual shaxslar nomlari, KBK va UO`K indekslari, muallif belgisi va boshqalar).


2.3 Tizimni o`rnatish

Tizim CD diskda taqdim qilinadi. CD diskda foydalanuvchi uchun yo`riqnomalar va dasturni avtomatik o`rnatuvchi setup.exe dasturi bilan taqdim etiladi. Tizimni o`rnatishda faqat bitta dasturiy vositadan foydalaniladi.

Eslatma: Tizim foydalanuvchining kompyuteriga o`rnatiliyotganda uning kompyuterida Apache veb serveri va MySQL MBBT si bo`lmasligi kerak, chunki tizim uchun kerak bo`lgan barcha dasturiy vositalar avtomatik tarzda o`rnatiladi. Agar bunday dasturiy vositalar foydalanuvchi kompyuterida avvaldan o`rnatilgan bo`lsa nima bo`ladi? Bu dasturlarni kompyuterdan o`chirib tashlash kerak yoki KARMAT ni moslash kerak.

Tizimni o`rnatish uchun quyidagi amallarni bajarish kerak:


- 1) setup.exe dasturiy vositasini ishga tushiring. O`rnatgichni dastlabki ko`rinishida foydalanuvchi muloqot tilini tanlaydi (1-rasm).



1-rasm: Muloqot tilini tanlash


Muloqot oynasidan o`zingizga tushunarli tilni tanlang va **OK** tugmasini bosing. (Hozirda tizim o`rnatgichi ingliz va rus tillarida yaratilgan, keyingi versiyalarda o`rnatgichni o`zbek tilida ham ishslash imkoniyati yaratiladi).

- 2) Muloqot tili tanlanib OK tugmasi bosilgach quyidagi oyna ko`rinadi.




2-rasm: Tizim haqida ma`lumot

- 3) Bu oynada siz tizim haqidagi qisqacha ma`lumotga ega bo`lasiz, shundan so`ng **Dalee >** tugmasini bosing. **Dalee >** tugmasi bosilgach sizga quyidagi oyna ko`rinadi (3-rasm).



3-rasm: Tizim o`rnatiladigan katologni tanlash


- 3) Ushbu oynada siz tizimni qayerga o`rnatishingizni ko`rsatasiz va yana **Dalee >** tugmasini bosing. **Dalee >** tugmasi bosilgach dasturiy tizim qanaqa nomda Dasturlar ro`yhatiga kiritilishi haqida sizga ma`lumot beruvchi quyidagi oyna ochiladi (4-rasm).



4-rasm: Tizim dasturlar ro`yhatida qanday nomda bo`lishi ko`rsatilgan


6) Ushbu oynada sizda dastur nomini o`zgartirib saqlash imkoniyati ham mavjud. **Dalee** > tugmasini bosing. **Dalee** > tugmasi bosilgach (5-rasm), yangi oyna ochiladi va u sizdan ish stolingizda tizimni tez chaqirish uchun yorliq yaratilishi kerak yoki kerakmasligini so`rovchi oyna ochiladi.

(Eslatma: Tizim o`rnatilgach har safar kompyuter ishga tushganda avtomatik ishga tushadi, shuning uchun ish stolida tizimni ishga tshiruchi yorliq bo`lishi unchalik zarur emas).




5-rasm: Foydalanuvchi ish stolida tizimni ishga tushiruvchi (yorliq) yaratilishi haqidagi so`rvonoma

7) So`rvonoma oynasida **Dalee** > tugmasi bosilgach quyidagi ma`lumot oynasi ochiladi (6-rasm). Ushbu oynada foydalanuvchi tizim kompyutering qaysi katolog va qismlariga o`rnatilishi haqida ma`lmotga ega bo`ladi.




6-rasm: Ma`lumot oynasi

- 8) Ma`lumotlar oynasida **Ustanovit** tugmasi bosilgach, KARMAT-M tizimi o`rnatalishni boshlaydi, bu vaqtda agar o`rnatish jarayonini to`xtatish kerak bo`lsa **Otmena** tugmasini bosing aks holda faqat kuting.



7-rasm: Tizimni o`rnatalish jarayoni

- 9) Tizimni o`rnatish ishlari tugallangach quyidagi oyna ko`rinadi. Bu oyna tizim o`rnatilish jarayoni tugallanganligi haqida axborot beradi va foydalanuvchidan KARMAT-M tizimini ishga tushirish kerak yoki kerakmasligini so`raydi.



8-rasm: Tizim o`rnatilish jarayoni tugallanganligi haqida ma`lumot beruvchi oyna


2.4 Tizim ishini boshqarish

Tizimni ishga tushirish ishini to`xtatish uchun maxsus dasturiy ta`minot yaratilgan. Tizim o`rnatilib birinchi bor ishga tushirilgandan so`ng bu dasturiy ta`minot foydalanuvchi kompyuterida ishlab turadi. Uning ko`rinishi quyidagi rasmda keltirilgan (9-rasm).



9-rasm: Tizim ishini boshqaruvchi dasturiy vosita

Ish stolinigzdagi K belgili pictogrammaga borib sichqonchani o`ng tugmasini bosing va shundan so`ng quyidagicha menuy osti paydo bo`ladi:



10-rasm: Tizim boshqaruvchini bajaradigan vazifalari

Bu dasturiy vosita quyidagi uchta vazifani bajaradi:

1. Ishga tushirish – Apache va MySQL ni ishga tushirish.
2. To`xtatish - Apache va MySQL ni ishini to`xtatish.
3. Ochish – Brouzerda KARMAT-M tizimini ishga tushirish.

2.5 Maktab axborot-resurs markazidagi axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning o`ziga xos xususiyatlari

Ma`lumki bugungi kunda kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlarini avtomatlashtirishga mo`ljallangan bir qator avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimlari mavjud. Ularning barchasini ham to`g`ridan-to`g`ri maktab axborot-resurs markaziga tatbiq qilib bo`lmaydi. Buning sababi maktabbdagi ARMga qo`yilgan maqsad va vazifalarning boshqa AKM va ARMLardan farq qilishidadir. Masalan, maktab ARM fondini joylashtirishda maktab ARM uchun yaratilgan maxsus kutubxona-bibliografik tasniflagichdan (GBT) foydalaniladi. Kitobxon elektron formulyarini yaratishda ham o`ziga xosliklar mavjud. Masalan, IRBIS tizimi asosida elektron formulyar yaratishda bir qator maydonlarga ma`lumotlar kiritish uchun imkoniyat yaratilganki (pasporti, ish joyi, lavozimi, turmushga chiqmasdan oldingi familiyasi, ish telefoni va boshqalar) ular maktab ARM faoliyatida deyarli qo`llanilmaydi. Elektron formulyar uchun kerakli ma`lumotlarni statik baza sifatida qarab uni oldindan tayyorlab qo`yish mumkin (direktor, o`qituvchi, o`quvchi, mahalla fuqarosi va boshqalar).

Maktab ARM fondini butlash masalasi ham zamonaviy talablar asosida qayta ko`rib chiqilganki (maktab ARM fondini butlash mexanizmi boshqa tipdagи AKM, ARM va kutubxonalarning fondini butlash mexanizmidan farq qiladi) an`anaviy “fondni butlovchining avtomatlashtirilgan ish joyi”ni bu yerda tatbiq qilish maqsadga muvofiq emas. Yuqoridagilardan ko`rinadiki maktab ARM faoliyatini avtomatlashtirishga mo`ljallangan dasturiy ta`minot yaratishda mакtab ARM faoliyatidagi asosiy axborot jarayonlarini hisobga olish talab qilinad ekan. KARMAT-M tizimini yaratishda maktab ARM faoliyatidagi o`ziga xosliklarni maksimal hisobga olishga harakat qilingan.

3. TIZIMNI ISHGA TUSHIRISH

Dastur ishga tushirilgach monitorda quyidagi interfeys paydo bo`ladi:

The screenshot shows the main window of the KAPMAT software. At the top, there is a logo consisting of colored squares with letters: K (blue), A (orange), P (green), M (yellow), A (orange), T (blue), and a minus sign (-) followed by M (blue). Below the logo, there are two dropdown menus: "Ishchi sahifa" (selected to "Китоб") and "Katolog" (selected to "Kitoblar"). There is also a language switcher "Uzbekcha - Ruscha". On the left, there is a sidebar with sections "Avtorashtirish" and "Menu". The "Avtorashtirish" section contains fields for "Login" and "Parol", and a link "Unutdingizmi? Kirish". The "Menu" section has two items: "Qidirish" and "Kengaytirilgan qidirish".

Foydalanuvchi “Qidirish” tugmasini bosishi va matab ARM elektron katalogi bazasidagi ma`lumotlar bilan tanishishi mumkin. Qidirish bibliografik tavsifning “Muallif”, “Sarlavha”, “Kalit so`zlar”, “Mavzular”, “Nashr etilgan yil” elementlari va mantiqiy amallar ishtirokida qidirish farmoyishi berish orqali bajariladi (1-rasm).

This screenshot shows the search parameters input screen. The "Avtorashtirish" sidebar remains the same. The main area contains fields for "Muallif" (Muallif), "Sarlavha" (Sarlavha), "Kalit so`z" (Kalit so`z), "Mavzular bo`yicha qidirish" (Search by subject), "Nash etilgan yil" (Year of publication), and "Natijalar soni" (Number of results). There are dropdown menus for "Boshlanadi" next to each field. At the bottom are "Qidirish" and "Tozalash" buttons.

1-rasm

Masalan, foydalanuvchi “Muallif” maydoniga “Karimov” so`zini kirlitsa (2-rasm)

This screenshot shows the search results after entering "Karimov" in the "Muallif" field. The results are displayed in a table with columns for "Muallif", "Sarlavha", "Kalit so`z", "Mavzular bo`yicha qidirish", "Nash etilgan yil", and "Natijalar soni". The "Muallif" column shows "Каримов" with a dropdown menu "Boshlanadi". The "Natijalar soni" dropdown is set to "10". At the bottom are "Qidirish" and "Tozalash" buttons.

2-rasm

va “Qidirish” tugmasini bossa, ARM elektron katalogi (EK) bazasidagi “Karimov” muallifligida nashr etilgan va EK ma`lumotlar bazasida mavjud bo`lgan barcha hujjatlarni ko`radi (3-rasm).

Kod	Adabiyot
927	Каримов У.Ф., Рахматуллаев М.А., Корпоратив ахборот кутубхона тизимлари ва тармоқлари, 2008
928	Каримов У.Ф., Электрон библиографик ресурслар яратиш технологияси ва манбалари, 2008
930	Каримова Ш.А., Каримов У.Ф., Ўзбек тили ва адабиёти, 2008
932	Каримов У.Ф., ИРБИС асослари, 2008, Ўқитувчи
933	Каримов У.Ф., КАРМАТ асослари, 2008, Фан

3-rasm

Avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimidan foydalanish bo`yicha ma`lum bir tayyorgarlikka ega bo`lgan foydalanuvchilar uchun “Kengaytirilgan qidirish” tugmasi yordamida EK ma`lumotlar bazasidan kerakli ma`lumotlarni samarali qidirish imkoniyati yaratilgan (4-rasm).

4-rasm

Maktab ARM elektron katalogi bazasini ko`rish foydalanuvchilardan hech qanday “Login” va “Parol” talab qilmaydi. Foydalanuvchilar ARMda ro`yhatdan o`tganlaridan so`ng ularga maxsus “Login” va “Parol” beriladi. Foydalanuvchilar maxsus “Login” va “Parol” ga ega bo`lishgach ular “Shaxsiy elektron kabinetga” ega bo`ladilar. Foydalanuvchi o`z shaxsiy elektron kabinetida (ShEK) ARM EK imkoniyatlaridan foydalanib hujjatlarni qidirishi, to`liq matnli hujjatlarni ko`rishi, kerakli adabiyotlarga buyurtmalar berishi, o`zining elektron formulalarini (o`qib ARMga qaytarilgan adabiyotlar va hali qaytarib topshirilmagan adabiyotlar ro`yhatini) ko`rishi mumkin.

4. KATALOGLASHTIRUVCHINING AVTOMATLASHTIRILGAN ISH O`RNI (AIO`)

Kataloglashtiruvchining AIO` asosan tizimning elektron katalogi (EK) bazasini shakllantirishga mo`ljallangan bo`lib bu yerda kutubxona fondiga kelib tushayotgan adabiyotlarga bibliografik ishlov berish va kitobxonlarning elektron formulyari yaratiladi. Ma`lumotlar EK bazasiga klaviatura yordamida qo`lda terilib, kiritiladi va ayni paytda EK bazasini shakllantirishda avvaldan tayyorlangan bibliografik yozuvlar bazasidan o`z EK bazasini yaratishda foydalanish imkonyati ham yaratilgan. Bu yerda shuni alohida qayd qilish lozimki, Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasining shu paytgacha xalqaro talablarga mos holda yaratilgan 150 000 dan ortiq elektron bibliografik resurslaridan samarali foydalanishga keng yo`l ochilgan. Demak, **KARMAT tizimi bilan ishlaydigan AKM, ARM va kutubxonalar o`z EK bazalarini shakllantirishda tayyor elektron bibliografik resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Bu esa o`z navbatida EK yaratish jarayonini tezlashtiradi, uning sifatli bo`lishiga olib keladi.** Fonddag'i bir kitobning bibliografik tafsif elementlarini EK bazasiga kiritish uchun o`rtacha 15-25 daqiqa sarf bo`layotganligini nazarda tutadigan bo`lsak KARMAT tizimidan foydalanishning naqadar afzalligini tushunib yetamiz. Tizim Web texnologiyalarining so`nggi yutuqlaridan foydalanib yaratilganligi tufayli KARMATning maxsus moduli AKM, ARM va kutubxonalarning elektron bibliografik resurslarini Internet tarmog`ida taqdim qila oladi [11, 12, 13]. Tizim EK interfeysi 1-rasmida keltirildi.

Kataloglashtiruvchining AIO` asosan ikki funksiyani bajaradi: kitobxonlar to`g`risidagi va ARM fondidagi hujjatlarning bibliografik tafsif elementlarini elektron katalog bazasiga kiritadi, ya`ni elektron katalog bazasini shakllantiradi. Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rnini ishga tushirish uchun “Login” “Parol” maydonlariga mos ravishda “cat” “11” qiymatlarini beramiz.

4.1 Foydalanuvchilarni ARMning elektron katalogida ro`yhatdan o`tkazish

KARMAT-M tizimida foydalanuvchilarni ro`yhatdan o`tkazish (kitobxonning elektron formulyarini yaratish) “Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rnida” amalga oshiriladi. Kataloglashtiruvchining AIO` ishga tushirish uchun “Login” va “Parol” maydonlariga mos ravishda “cat” va “11” kiritiladi (5-rasm).



5-rasm

“Kirish” tugmasi bosilgach quyidagi interfeysga ega bo`lamiz (6-rasm)



6-rasm

Paydo bo`ladigan menyuning “Kataloglashtirish” qismidan “Kitobxonlar” tugmasiga sichqoncha bilan chertamiz va kitobxonlarning elektron formulyarini yaratish imkoniyatiga ega bo`lamiz (7-rasm). Bu yerda ARMga a`zo bo`lgan kitobxonlarning ro`yhatini ko`rishimiz mumkin. Ro`yhatdagi ma`lumotlarga zarur hollarda tuzatishlar kiritishimiz mumkin, buning uchun o`ng tomondagi “tahrirlash” belgisi ustiga sichqoncha bilan chertsak maxsus deraza ochiladi va u yerda kerakli tuzatishlarni bajarishimiz mumkin. Kitobxonlarni ro`yhatdan o`chirish uchun kitobxon familiyasining o`ng tomonida turgan “o`chirish” tugmachasini bosamiz va berilgan buyruqni tasdiqlaymiz.

Yangi kitobxon to`g`risidagi ma`lumotlarni EK bazasiga kiritish yoki kitobxonning elektron formulyarini yaratish uchun 7-rasmda keltirilgan “Yangi kitobxon qo`shish” tugmasini bosamiz va 8-rasmda ko`rsatilgan shaklga ega bo`lamiz.

The screenshot shows the KARMAK software interface with the 'Yangi kitobphon qo'shish' (Add New Book) dialog box open. The table lists 10 new books with their details:

Kod	Bilet raqami	F.I.O.	Kategoriysi	Sinf	Parallel
18	11111	Кодиров Ф.Х.	Махалла фуқароси	8A	O'rta mакtab
7	1122	Атаджанов А.В.	Ўқитувчи		O'rta mакtab
13	111	Атаджанов Ж.	Ўқитувчи		O'rta mакtab
12	11345	Бабиков	Ота оналар	2A	O'rta mакtab
15	1	Каримов О.У.	Ўқувчи	2A	Boshlang'ich mакtab
14	000	Каримов У.Ф.	Ўқитувчи	9A	O'rta mакtab
21	055	Рахмонова М.Ю.	Тарбиячи	9A	Boshlang'ich mакtab
16	1111	Савочкин М.П.	Тарбиячи	2A	O'rta mакtab
19	077	Тўракулова М.У.	Ўқитувчи		Boshlang'ich mакtab

7-rasm

Copyright © 2007

8-rasm

Yangi kitobxonning elektron formulyarini yaratish uchun 8-rasmda ko`rsatilgan maydonlarni to`ldiramiz (9-rasm). Kitobxonning fotosurati Web kamera yoki skaner orqali kiritilishi hamda maxsus papkada jamlanishi kerak. Kitobxonning fotosuratini “Obzor” orqali topamiz va “Qo’shish” tugmasini bosamiz. Natijada kitobxon to`g`risidagi ma`lumotlar va uning fotosurati tizimning EK bazasiga kiritiladi (10-rasm).

8-rasmda ko`rsatilgan “Bilet raqami” va “Parol” maydonlariga kiritilgan ma`lumotlar kitobxon uchun shaxsiy elektron kabinet eshigini ochuvchi “Login” va “Parol” funksiyalarini bajaradi. Bu maydonga kiritiladigan ma`lumotlar takrorlanmaydigan, unikal bo`lishi shart. Maydonlarga kiritilgan ma`lumotlarni istalgan paytda tahrirlash mumkin.

9-rasm

Kataloglashtiruvchi	Avtor	Nomi	Yayin chiqaruvchisi	Seriya	Shaklga olib	Shaklga olib
Kitobxonning Oʻsishasi	Asos	Shaxit markaz	ARM	Kataloglashtiruvchi	SA	Shaxit markaz
Vayn	1	1122	Azizjanov A.B.	Yayin chiqaruvchisi	SA	Shaxit markaz
o. M. Umarov	7	1122	Azizjanov A.B.	Yayin chiqaruvchisi	SA	Shaxit markaz
o. Tashqardonning	11	1122	Azizjanov A.B.	Yayin chiqaruvchisi	SA	Shaxit markaz
o. Kichiknomer	12	1122	Bekirov	Chashap	ZA	Shaxit markaz
o. Gibran	12	1122	Bekirov	Chashap	ZA	Shaxit markaz
o. Tashqardonning	12	1122	Bekirov	Chashap	ZA	Shaxit markaz
o. 12	1122	Karpoxina V.O.	Yayin chiqaruvchisi	SA	Shaxit markaz	Shaxit markaz
o. 21	1122	Qasimova S.T.	Yayin chiqaruvchisi	SA	Shaxit markaz	Shaxit markaz
o. 12	1122	Qasimova V.T.	Yayin chiqaruvchisi	ZA	Shaxit markaz	Shaxit markaz
o. 12	1122	Qasimova V.T.	Yayin chiqaruvchisi	ZA	Shaxit markaz	Shaxit markaz

10-rasm

Shunday qilib, bir kitobxonning elektron formulyarini yaratishni ko`rib chiqdik, keyingi kitobxonning elektron formulyarini yaratish uchun “Yangi kitobxon qo`shish” tugmasini bosamiz va 8-rasmda ko`rsatilgan shaklga ega bo`lamiz hamda tegishli maydonlarni to`ldirgach “Qo`shish” tugmasini bosamiz.

4.2. ARM fondidagi hujjatlar bibliografik tavsif elementlarini EK bazasiga kiritish (EK bazasini shakllantirish)

Maktab ARMni zamonaviy talablar asosida tashkil qilishda uning elektron katalogi bazasini shakllantirish muhim axamiyat kasb etadi. Zero elektron katalog, ARMning eng muhim elementi hisoblanadi. ARM fondini lokal va global tarmoqlarda taqdim qilish, buyurtmalar berish, ularni avtomatik ravishda hisobga olish, kitob berish va qaytarib olish, ARM statistikasini yuritish ARM fondini to`ldirish kabi bir qator jarayonlarning avtomatlashtirilishida EK eng asosiy rollardan birini o`ynaydi. Shuning uchun ham ARM elektron katalogini shakllantirish maktab kutubxonasini axborot-resurs markaziga aylantirishdagi dastlabki qadamlardan biri hisoblanadi.

Kataloglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o`rnidagi “Elektron catalog” tugmasini bosish orqali biz tizimning elektron katalog bazasidagi bibliografik yozuvlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo`lamiz (11-rasm).

K A P M A T M

Ishchi sahifa: Kitob Catalog: Nashrlar Uzbekcha · Ruscha

Kataloglashtiruvchi Kataligizator Chiqish

Menu

Ma'lumotnomalar
• Ma'lumotnomalar
Kataloglashtirish
• Elektron katalog
• Kitobxonalar
• Qidirish
• Kengaytirilgan qidirish

Muallif: Boshlanadi
Sarlavha: Boshlanadi
Kallit so'z: Boshlanadi

Yangi adabiyot qo'shish Qidirish Tozalash

Kod	X	Nomi	Soni			
32	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математик анализ / Каримов У.Ф., Атажанов Ж., Мухамадиев А.Ш. - Тошкент : О'zbekiston, 2009. - ISBN 9789943777777.	3			
31	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика / Каримов У.Ф.- Тошкент : Bilim, 2009. - ISBN 9789943678765.	5			
29	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика : Ўқув кўлланма / Каримов У.Ф., Мухамадиев А.Ш., Абдуллаев С.М. - Тошкент : Bilim, 2009. - ISBN 9789943987676.	4			
28	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика / Каримов У.Ф.- Тошкент : Hayut, 2009. - ISBN 97899436785945.	3			
27	<input type="checkbox"/>	Каримов И.А. Истикрол йўли: муаммолар ва режалар / Каримов И.А. - Тошкент : O'zbekiston, 1992. - ISBN 97899437656765.				
26	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика? Забавни! / Каримов У.Ф.- Самарқанд : Zarafshon, 2009. - ISBN 978994334567.	4			
25	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Ахборот - кутубхона, ахборот-ресурс марказлари ва кутубхоналар учун дастурий таъминот: муаммолар, ўчимлар / Калимов У.Ф. - Тошкент, 7 уйл. 2007. - 30 б.; - ISBN 97899431234567.	2			
25	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Ахборот - кутубхона, ахборот-ресурс марказлари ва кутубхоналар учун дастурий таъминот: муаммолар, ўчимлар / Каримов У.Ф. - Тошкент : Zilo, 2007. - 30 б.; - ISBN 97899431234567.	2			
24	<input type="checkbox"/>	Абдуллаев С.М. Химия и время / Абдуллаев С.М. - Тошкент : Hayut, 2000. - 250 б.; - ISBN 97899436576567.	4			
23	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Химия и время / Каримов У.Ф. - 500 б.; 50X70. - ISBN 97899431232345.	2			
22	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Автоматлаштирилган ва ахборотлаштирилган кутубхона / Каримов У.Ф., Атажанов Ж. - Андикон : Ма наулат, 2006. - ISBN 9789943565676.	2			

Chop qilish Export Ko'rsatildigan soni: 10

Jami: 25 Ko'rsatildi: 10 1 2 3

11-rasm

Bu yerda elektron katalog bazasidagi bibliografik yozuvlarni ma'lum bir tartib bilan ko`rib chiqish, har bir hujjatning EKdagi statusini o`rnatish, nusxalar sonini belgilash, kerakli tuzatishlar kiritish va yozuvni bazadan o`chirish imkoniyatlari yaratilgan.

4.3 Hujjat nusxalarini belgilash

ARM fondida saqlanayotgan har bir hujjatning necha nusxada saqlanayotganligini belgilash kitobxonlarga xizmat ko`rsatishda muhim elementlardan biri hisoblanadi, zero saqlanayotgan hujjatlar nusxalari soni kitobxonlarga xizmat ko`rsatish sifati va samarasini yuksaltirishda hamda avtomatlashtirilgan tizimlarni ARMda tatbiq qilishda yetakchi rollardan birini o`ynaydi. EK bazasiga kiritilgan hujjat nusxalar sonini belgilashni ko`rib chiqamiz (12-rasm). Faraz qilamiz, 29 kod bilan EK bazasiga kiritilgan U.F.Karimovning "Informatika" kitobidan ARM fondidada 3 nusxada saqlanmoqda. Nusxalar sonini belgilash uchun sichqoncha bilan "Nusxalar" sonini belgilovchi shaklga chertamiz. Natijada nusxalar sonini belgilovchi shaklga ega bo`lamiz (13-rasm).

Ishchi sahifa: Китоб Catalog: Nashrlar Uzbekcha · Ruscha

Kataloglashtiruvchi
Kataligzator Chiqish »

Menu

- Ma'lumotnomalar
- Elektron katalog
- Kitobhonorlar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Kod	X	Nomi	Soni				
32	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математик анализ / Каримов У.Ф., Атажанов Ж., Мухамадиев А.Ш. - Ташкент : О'zbekiston, 2009. - ISBN 9789943777777.	3	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
31	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика / Каримов У.Ф. - Ташкент : Bilim, 2009. - ISBN 9789943678765.	5	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
29	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика : Ўқув кўлланма / Каримов У.Ф., Мухамадиев А.Ш., Абдуллаев С.М. - Ташкент : Bilim, 2009. - ISBN 9789943987676.		<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
28	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика / Каримов У.Ф. - Ташкент : Hayot, 2009. - ISBN 97899436785945.	3	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
27	<input type="checkbox"/>	Каримов И.А. Истикрол йўли: муаммолар ва режалар / Каримов И.А. - Ташкент : O'zbekiston, 1992. - ISBN 97899437656765.		<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
26	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика? Забавна! / Каримов У.Ф. - Самарқанд : Zarafshan, 2009. - ISBN 978994334567.	4	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
25	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Ахборот – кутубхона, ахборот-ресурс марказлари ва кутубхоналар учун дастурий таъминот: Муаммолар, ёнимлар / Каримов У.Ф. - Ташкент : Ziyo, 2007. - 30 б., - ISBN 97899431234567.	2	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>
24	<input type="checkbox"/>	Абдуллаев С.М. Химия и время / Абдуллаев С.М. - Ташкент : Hayot, 2000. - 250 б., - ISBN 97899436576567.	4	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>	<input type="checkbox"/>

Yangi adabiyot qo'shish

Qidirish Tozalash

100% Интернет

12-rasm

Ishchi sahifa: Китоб Catalog: Nashrlar Uzbekcha · Ruscha

Kataloglashtiruvchi
Kataligzator Chiqish »

Menu

- Ma'lumotnomalar
- Elektron katalog
- Kitobhonorlar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Inv. raqam	Shtrih kod	KSU dagi raqami	KSU tipi	Narhi	Narhi (QOS bilan)	Hisob kartasidagi raqami	Soni			
------------	------------	-----------------	----------	-------	-------------------	--------------------------	------	--	--	--

Yangi nusha qo'shish

13-rasm

«Yangi nusxa qo'shish» tugmasini bosamiz va quyidagiga ega bo`lamiz (14-rasm).

Asosiy parameterlar:

- Status: Saqlash joyida
- Inv. raqam:
- Shtrih kod:
- Soni: 1

Umumiylar parameterlar:

- KSU dagi raqami:
- KSU tipi: KSU qo'llanmalar
- Narhi:
- Narhi (QOS bilan):
- Hisob kartasidagi raqami:
- Nokl. raqami:
- Saqlanish muddati: Har doim
- Bo'lim: Sklad
- Balans: Balans

Yopish Qo'shish Tozalash

14-rasm

Tegishli maydonlar (Inventar nomer, nusxalar soni, bir nusxa narxi va boshqalar) to`ldirilgach, “Qo'shish” tugmasi bosiladi. Natijada quyidagiga ega bo`lamiz (15-rasm).

Kataloglashtiruvchi

Ma'lumotnomalar

- Ma'lumotnomalar
- Kataloglashtirish
- Elektron katalog
- Kitobhonorlar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish

Inv. raqam	Shtrih kodı	KSU dagi raqami	KSU tipi	Narhi	Narhi (QOS bilan)	Hisob kartasidagi raqami	Soni		
KAR1			KSU qo'llanmalar				1		
KAR2			KSU qo'llanmalar				1		
KAR3			KSU qo'llanmalar				1		

15-rasm

“Qaytish” tugmachasi bosilganda ARM EKga kiritilgan hujjatning soni 3 ta qilib belgilanadi (16-rasm).

Ma'lumotnomalar

- Ma'lumotnomalar
- Kataloglashtirish
- Elektron katalog
- Kitobhonorlar
- Qidirish
- Kengaytirilgan qidirish


Muanif:	<input type="text"/>	Boshlanadi			
Sarlavha:	<input type="text"/>	Boshlanadi			
Kait so'z:	<input type="text"/>	Boshlanadi			
Tozalash					
<u>Yangi adabiyot qo'shish</u>					
Kod	X	Nomi	Soni		
32	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математик анализ / Каримов У.Ф., Атажанов Ж., Мухамадиев А.Ш. - Ташкент : О'zbekiston, 2009. - ISBN 9789943777777.	3		
31	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика / Каримов У.Ф.- Ташкент : Bilm, 2009. - ISBN 9789943678765.	5		
29	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Информатика : Ўқув кўлланма / Каримов У.Ф., Мухамадиев А.Ш., Абдуллаев С.М. - Ташкент : Bilm, 2009. - ISBN 9789943987676.	3		
28	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика / Каримов У.Ф.- Ташкент : Hayot, 2009. - ISBN 97899436785945.	3		
27	<input type="checkbox"/>	Каримов И.А. Истиқтолп йўли: муаммолар ва режалар / Каримов И.А. - Ташкент : O'zbekiston, 1992. - ISBN 9789943765675.			
26	<input type="checkbox"/>	Каримов У.Ф. Математика? Забавно! / Каримов У.Ф. - Самарқанд : Zarafshon, 2009. - ISBN 978994334567.	4		
25	<input type="checkbox"/>	Ахборот - кутубхона, ахборот-ресурс марказлари ва кутубхоналар учун дастурий таъминот: Муаммолар, ечимлар / Каримов У.Ф. - Ташкент : Zilo, 2007. - 30 б., - ISBN 97899431234567.	2		
24	<input type="checkbox"/>	Абдуллаев С.М. Химия и время / Абдуллаев С.М. - Ташкент : Hayot, 2000. - 250 б., - ISBN 97899436576567.	4		

16-rasm

Shunday qilib, 935 kod bilan EK bazasida saqlanayotgan hujjatning 3 nusxada saqlanayotganligini belgilab qo'ydi.

4.4 Elektron katalog bazasidagi yozuvni tahrirlash

EK bazasidagi biror bir yozuvga tuzatish kiritish kerak bo'lganda, mazkur yozuvning o'ng tomonidagi tahrirlash belgisi ustiga sichqoncha bilan chertamiz va zaruriy maydonlarga tuzatishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lamiz (17-rasm).



17-rasm

Kerakli maydonlarga tegishli tuzatishlar kiritilgach “Tahrirlash” tugmasi bosiladi. Natijada EK bazasidagi tegishli maydondagi yozuvga o`zgartirish kiritiladi. Agarda maydonlarning hech qaysiga o`zgartirish kiritilmasa “Qaytish” tugmasi bosiladi. Bunday holda EK bazasidagi mazkur yozuv o`zgarishsiz qoladi. *Eslatma: Maydonga ma'lumot kiritilayotganda kiritishning kengaytirilgan vositasidan foydalanish tavsiya qilinadi (uch nuqtali tugma). Takrorlanuvchan maydonlarning chap tomonidagi tugma ustiga qo'shuv (+) belgisi qo'yilgan.*

Agarda, EK bazasidan biror bir yozuvni o`chirib yuborish zarur bo`lganda mazkur yozuvning o`ng tomonidagi o`chirish belgisidan foydalilanadi. *Eslatma: EK bazasidan biror bir yozuv o`chirilgach uni qayta tiklash mumkin bo`lmaydi, shu sababli ham EK bazasidan yozuvlarni o`chirishda juda ehtiyoj bo`lish lozim.*

4.5 Elektron katalog bazasiga yangi hujjatning bibliografik tavsif elementlarini kiritish

ARM EK bazasini shakllantirish uchun “Kataloglashtiruvchining AIO`”dagi “Elektron catalog” tugmasini bosish orqali ish boshlanadi (18-rasm). Elektron katalog bazasiga yangi adabiyotlarni kiritish “Yangi adabiyot qo'shish” tugmasini bosish orqali bajariladi.

